

INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2017 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko'paytirishga 3307,1 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 89,9 foizni tashkil qildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi


	<i>mlrd.so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz</i>
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	3307,1	89,9	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Markazlashgan investitsiyalar:	502,1	94,1	15,2
byudjet mablag'lari	235,5	131,6	7,1
davlat maqsadli fond mablag'lari	209,9	75,1	6,3
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	56,7	92,6	1,7
Markazlashmagan investitsiyalar	2805,0	88,7	84,8
korxonalarining o'z mablag'lari <i>(mahalliy byudjet mablag'larini qo'shgan holda)</i>	1596,8	159,0	48,3
aholi mablag'lari	682,9	40,7	20,6
to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	57,7	175,8	1,7
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	467,6	112,5	14,1

2017 yil yanvar-dekabrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi


	<i>Jami</i>	<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
Jami, mlrd. so'm	3307,1	724,0	2583,1
<i>shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan foiz ko'rinishida</i>	100,0	100,0	100,0
qurilish-montaj ishlari	69,1	74,7	67,5
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlar	26,2	22,6	27,3
Boshqa harajatlar	4,7	2,7	5,2

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari

2016 yil yanvar-dekabr




2017 yil yanvar-dekabr



- markazlashgan
- markalashmagan

2017 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

(jamiga nisbatan foizda)



Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish

2017 yil yanvar-dekabrda umumiy maydoni 975,3 ming kv.m. bo'lgan 5853 ta (2016 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 77,3 foiz), shu jumladan qishloq joylarida 746,8 ming kv.m. 75,1 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi. Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 958,9 mlrd. so'mni yoki 29,0 foizi uy-joy qurilishida o'zlashtirildi.

Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, musiqa va san'at maktablari qurish, qayta ta'mirlash hamda kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablariga sport inshootlari qurilishida 68,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 43,8 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 3,3 foizini tashkil qildi.

Kommunal qurilish sohasida 344,1 km uzunlikdagi ichimlik suvi, 2016 yil yanvar-dekabriga nisbatan mos ravishda 93,0 foizni, gaz tarmoqlari 67,9 km uzunlikda ishga tushirildi, bu 2016 yil yanvar-dekabriga nisbatan mos ravishda 86,6 foizni tashkil qildi.

Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga aholi mablagʻlari hisobiga 5,7 mln. soʻm, gaz tarmoqlari qurilishiga esa 2,5 mln. soʻm miqdorida investitsiyalar oʻzlashtirildi.

Qurilish faoliyati. 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 2351,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati 95,6 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 81,3 foizi bino va inshootlarni qurish boʻyicha qurilish ishlari, 14,1 foizi fuqarolik qurilishi obʻektlarini qurish boʻyicha qurilish ishlari va 4,6 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga toʻgʻri keldi. SHu jumladan umumiy hajmdan 89,3 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga toʻgʻri keldi.

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 2264,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 96,3 foizni (2016 yil yanvar-dekabrga nisbatan oʻsish surʻati 97,9 foizni) tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish tashkilotlarining oʻz kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

